XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 18-avgust VII-13-93-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi Sh.Sultonovning xalq deputatlari tumani Kengashining 2025-yil 29-apreldagi VII-9-60-7-96-K/25-sonli qarori ijrosi yuzasidan hisoboti

O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti Qonuni ijrosini ta’minlash tumandagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish), mukammal ta’mirlash va jihozlash ishlarini samarali tashkil etish, mahalliy budjet mablag‘laridan samarali foydalanish, shuningdek, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i Sh.Sultonovning tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish holati yuzasidan bergan hisoboti muhokama etilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi yettinchi chaqiriq o‘n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i Sh.Sultonovning xalq deputatlari tumani Kengashining 2025-yil 29-apreldagi VII-9-60-7-96-K/25-sonli qarori ijrosi to‘g‘risidag hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimi o‘rinbosari O.Shirinov, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Sultonov) tumandagi maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari faoliyatini tashkil etish yuzasidan tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanish hamda ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo‘yicha aniq choralarini ko‘rsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov) tumandagi ijtimoiy soha obyektlariga ajratilgan tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish ustidan nazorat o‘rnatsin.

4. Mazkur qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiya (A.Xudayberdiyev), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH